



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI




**2023-yil
yanvar-avgust**

Dastlabki ma'lumotlar


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(yanvar-avgust)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-avgust** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **18 013,1** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,1 %** ni tashkil etdi.



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-avgust)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	18 013,1	100,0	111,1
Samarqand sh.	8 124,7	45,1	114,4
Kattaqo'rg'on sh.	391,3	2,2	106,8
Oqdaryo	533,1	3,0	106,3
Bulung'ur	453,2	2,5	104,3
Jomboy	759,9	4,2	109,3
Ishtixon	604,5	3,3	105,7
Kattaqo'rg'on	634,4	3,5	106,4
Qo'shrabot	338,2	1,9	105,5
Narpay	564,2	3,1	105,6
Payariq	607,2	3,4	105,2
Pastdarg'om	1 078,4	6,0	107,3
Paxtachi	378,1	2,1	105,3
Samarqand	1 290,2	7,2	114,2
Nurobod	330,0	1,8	105,2
Urgut	1 134,5	6,3	108,3
Toyloq	791,2	4,4	121,5

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust)



2023-yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 352,3** ming so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,8 %** ni tashkil etdi



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023-yil yanvar-avgust)


Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	4 352,3	108,8
Samarqand sh.	14 095,6	112,0
Kattaqo'rg'on sh.	4 162,9	104,8
Oqdaryo	3 133,8	103,7
Bulung'ur	2 283,0	102,1
Jomboy	4 087,9	106,7
Ishtixon	2 228,1	103,5
Kattaqo'rg'on	2 194,4	104,3
Qo'shrabot	2 419,4	103,4
Narpay	2 516,7	103,7
Payariq	2 263,3	102,6
Pastdarg'om	2 863,6	105,1
Paxtachi	2 512,1	103,8
Samarqand	4 801,4	111,7
Nurobod	2 062,5	103,2
Urgut	2 068,2	105,7
Toyloq	3 649,7	118,7

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-avgust)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	18 013,1	100,0	111,1
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	848,2	4,7	123,3
Moliyaviy xizmatlar	2 935,8	16,3	110,6
Transport xizmatlari	4 214,5	23,4	106,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>3 842,9</i>	<i>21,3</i>	<i>106,6</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	968,5	5,4	132,5
Savdo xizmatlari	4 717,6	26,2	107,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	430,5	2,4	111,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	878,7	4,9	132,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	346,7	1,9	102,1
Ijara xizmatlari	485,6	2,7	104,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	517,5	2,9	108,3
Shaxsiy xizmatlar	811,3	4,5	108,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	296,5	1,6	114,8
Boshqa xizmatlar	561,7	3,1	117,7

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar-avgust)




2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **2023-yilning** mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 935,0** mlrd. so'mga oshib, **2 935,8** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **16,3** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **110,6 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023-yil yanvar-avgust)

2023-yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,3 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlari (yanvar-avgust)


2023-yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi **4 214,5** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **106,6 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **23,4 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 020** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **2,4 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023-yil yanvar-avgust)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi (**91,2 %**).

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-avgust)



2023-yil avgust avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 842,9** mlrd. so'mga yetdi.

2022-yil avgust oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **106,6 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,3 %** ni tashkil etdi.


Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, %

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi (**71,4 %**).


Taqqoslash uchun: 2022-yilning **avgust** oylarida ushbu ko'rsatkich **72,0 %** ni tashkil etgan.



Savdo xizmatlari (yanvar-avgust)

2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 414,0 mlrd. so'mga oshib, 4 717,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati 107,9 % ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

1-sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan

16 005 birlik

2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi 37,3 % yoki 16 005 birlik bilan ustunlik qiladi.



2023-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **74,7 %** ni tashkil etdi.



74,7 %

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



17,0 %


Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar



8,3 %

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-avgust)



2023-yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **848,2** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **123,3 %** ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **4,7** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **629** birlikka yetdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022-y.


(yanvar-avgust)

2023-y.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-avgust)

2023-yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **878,7** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **132,6 %** ni tashkil etdi.



“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.


Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-avgust)



2023-yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **346,7** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9 %** ni tashkil etdi.




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **996** birlikni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-avgust)

2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023-yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **670,7** mlrd. so'mga oshib, **968,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **3 322** birlikni tashkil etgan.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023-yil yanvar-avgust)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-avgust)

2023-yil yanvar-avgust oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **430,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4** % ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,1** % ni tashkil etgan.




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (yanvar-avgust)


2023-yilning yanvar-avgust oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **296,5** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,6** % ni tashkil etdi.



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (yanvar-avgust)



2023-yilning yanvar-avgust oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **517,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, **2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 %** ni tashkil etgan.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023-yil yanvar-avgust)



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari (yanvar-avgust)

2019-yilning yanvar-avgustiga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **228,5** mlrd. so'mga oshib, **485,6** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.